



ZAMONAVIY TA'LIM TRENDLARINING BARQAROR KELAJAKNI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

A.X.Aripova

O'zbek va rus tillari kafedrasida dotsenti, PhD, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

aaripova@uwed.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20291992>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 13-may 2026 yil

Ma'qullandi: 16-may 2026 yil

Nashr qilindi: 19-may 2026 yil

KEYWORDS

o'zgaruvchan dunyo, kontekst, Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM), zamonaviy ta'lim trendlari, sifatli ta'lim, ta'lim yo'nalishlari

ABSTRACT

Mazkur maqolada bugungi o'zgaruvchan dunyoda ta'limning muhimligi, O'zbekiston kontekstida Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM)ni amalga oshirilishida zamonaviy ta'lim trendlari mohiyati, zamonaviy ta'lim trendlari o'quv jarayonini yanada qiziqarli, qulay va natijador qilishida asosiy yo'nalishlari hamda Barqaror rivojlanishga erishishda ta'lim shunchaki yordamchi vosita emas, balki uning poydevori bo'lib, BRM 4-maqsadi (Sifatli ta'lim)da rivojlanishning asosiy rollari batafsil yoritilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается важность образования в современном меняющемся мире, сущность современных образовательных тенденций в реализации Целей устойчивого развития (ЦУР) в контексте Узбекистана, основные направления современных образовательных тенденций в повышении интереса, удобства и эффективности учебного процесса, а также тот факт, что образование является не просто вспомогательным инструментом достижения устойчивого развития, а его основой, и подробно обсуждаются основные роли развития в достижении Цели устойчивого развития № 4 (Качественное образование).

Ключевые слова: меняющийся мир, контекст, Цели устойчивого развития (ЦУР), современные образовательные тенденции, качественное образование, образовательные тенденции.

Abstract: This article examines the importance of education in today's changing world, the nature of modern educational trends in implementing the Sustainable Development Goals (SDGs) in the context of Uzbekistan, the main directions of modern educational trends in increasing the interest, convenience, and effectiveness of the educational process, as well as the fact that education is not just an auxiliary tool for achieving sustainable development, but its foundation. The article also discusses in detail the key roles of development in achieving Sustainable Development Goal 4 (Quality Education).

Keywords: changing world, context, Sustainable Development Goals (SDGs), modern educational trends, quality education, educational trends.

O'zgaruvchan dunyoda ta'lim nafaqat bilim berish maskani, balki barqaror kelajakni shakllantirishning asosiy drayveriga aylandi. Bugungi kunda Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) va zamonaviy ta'lim trendlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Sifatli ta'lim

yo'nalishidagi eng muhim nuqtalar Barqaror Rivojlanishning 4-maqsvadi "Sifatli ta'lim"da mohiyatan ifodalangan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan 17 ta maqsadning to'rtinchisi — "Sifatli ta'lim" deb nomlanadi. Uning mazmuni shunchaki ta'lim olish emas, balki:

Umrbod ta'lim (Lifelong learning): Inson butun umri davomida yangi ko'nikmalarni o'rganishi;

Inklyuzivlik: Jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi va jismoniy imkoniyatidan qat'i nazar, barcha uchun teng imkoniyat kabilarni qamrab olgan.

Bugungi kun zamonaviy ta'limdagi asosiy trendlarga - raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt (ChatGPT, adaptive learning) ta'limini kiritish mumkin, chunki har bir bilimga chanqoq izlanuvchining qobiliyatiga moslashtirilgan kontentlar kun sayin yaratilmoqda.

Zamonaviy ta'limda "shaxsiylashtirilgan" trend asosidagi yondashuvlar mohiyatan sifatli ta'lim uchun muhim baza vazifasini bajaradi: Masalan, STEAM yondashuvi.

Ushbu yondashuv asosida fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika uyg'unlashadi. Bu ta'lim oluvchilarda tanqidiy fikrlash va muammolarni kreativ hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Keyingi yondashuv, yumshoq ko'nikmalar (Soft Skills) deb nomlanadi. Texnik bilimdan ko'ra, muloqot qilish, jamoada ishlash, hissiy intellekt (EQ) va moslashuvchanlikka asoslanadi. Gibrid ta'lim: masofaviy va an'anaviy ta'limning birlashishuvi sanalib, bunda ta'limning geografik chegaralari kengaytirilib, resurslarni tejashga (barqarorlikka) xizmat qilinadi. Yana bir yo'nalish - Ta'lim va ekologik barqarorlik deb nomlanadi. Bugungi kunda dolzarb yo'nalishlardan sanaladi, chunki aynan ta'lim orqali ekologik barqarorlikka erishish mumkinligini har bir fuqaro o'zining yashab turgan hududi kesimida teran anglashi va harakat qilishi aniq.

O'zbekiston kontekstida ham oliy va xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyalari, aynan BRMga asoslanadi. Jumladan, Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ining kengayishi; Oliy ta'limda akademik mustaqillikning berilishi; IT-parklar va raqamli ta'lim loyihalari Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) Sifatli ta'lim yo'nalishida o'z ifodasini topgan.

Bugungi o'zgaruvchan dunyoda ta'lim faqat "nima o'rganish" haqida emas, balki "qanday o'rganish va o'zgacha fikrlash" haqida. Barqaror rivojlanishga faqatgina ongli va zamonaviy texnologiyalarni egallagan avlod orqali erishish mumkin.

Zamonaviy ta'lim trendlari o'quv jarayonini yanada qiziqarli, qulay va natijador qilishga qaratilgan. Zamonaviy dunyoda keng miqyosda ommalashayotgan asosiy yo'nalishlar - zamonaviy ta'lim trendlariga — "Yashil ko'nikmalar" (Green skills) kiradi. Dunyo iqtisodiyoti "yashillashib" borayotgan bir paytda, ta'lim tizimi bilim oluvchilarga ekologik mas'uliyat va qayta tiklanuvchi energiya bilan ishlashni o'rgatishi shart. Yana bir muhim trend - bu: Sun'iy intellekt va shaxsiylashtirilgan ta'lim. Endi barcha ta'lim oluvchilar bir xil tempda o'qishi shart emas. Sun'iy intellekt har bir bilim oluvchining kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilib, unga mos individual o'quv rejasi (Adaptive learning) tuzib beradi. Masalan, ommalashib borayotgan Duolingo yoki Khan Academy kabi platformalar bilim oluvchining xatolariga qarab savollarni qiyinlashtiradi yoki osonlashtiradi. Bu til o'rganuvchilar uchun juda keng imkoniyatlarni beradi.

Yana bir trend - Mikro-ta'lim (Micro-learning) deb nomlanadi. Insonning diqqatni jamlash vaqti qisqarib borayotgani sababli, ma'lumotlar kichik-kichik "bo'laklar" ko'rinishida beriladi. 5-10 daqiqalik videolar yoki qisqa testlar orqali bilim olish osonroq va tezroq o'zlashtiriladi.

XXI asrning mashhur trendlaridan biri - Gamefikatsiya (O'yinga yo'naltirish) trendi. O'qish jarayonini o'yinga aylantirishga asoslanadi. Ballar to'plash, reytingda ko'tarilish, yutuqlar (badgeler) olish bilim oluvchining motivatsiyasini oshiradi. Masalan, Kahoot! orqali dars o'rtasida musobaqa shaklida test o'tkaziladi.

Trendlar sirasiga VR va AR (Virtual va Kengaytirilgan borliq) ham kiritilgan. Bilim oluvchilar kitobdagi rasmni ko'rish o'rniga, VR ko'zoynaklar orqali inson tanasining ichiga "sayohat qilishi", qadimgi Rim ko'chalarini kezishi yoki xavfli kimyoviy tajribalarni xavfsiz virtual laboratoriyada o'tkazishi mumkin.

Eng mashhur trend – ta'limda STEAM va Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) sanaladi. Faqat nazariyani yodlash emas, balki aniq muammoni hal qilish orqali fan o'rganiladi. Masalan: Bilim oluvchilarga shunchaki fizika qonunlarini o'rgatish emas, balki "quyosh paneli bilan ishlaydigan kichik mashina yasash" vazifasini beriladi.

Yumshoq ko'nikmalar (Soft Skills) ustuvorligi - texnik bilimlar (Hard skills) tez eskirishi mumkin, shuning uchun zamonaviy ta'limda 4K ko'nikmalariga katta urg'u beriladi. Ya'ni bunda:

Kritik fikrlash (Tanqidiy fikrlash);

Kreativlik (Ijodkorlik);

Kommunikatsiya (Muloqot);

Kollaboratsiya (Jamoda ishlash) kabilar ustuvor sanaladi.

Endi har bir zamonaviy ta'lim 4K ko'nikmalari haqida batafsil to'xtalib o'tamiz:

Kritik (tanqidiy) fikrlash – bu ma'lumotni shunchaki qabul qilmay, uni tahlil qilish, baholash, shubha ostiga olish va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Bu jarayon muammolarni hal qilish, mantiqiy fikrlash va obyektiv qaror qabul qilishga yordam beruvchi faol aqliy faoliyat bo'lib, «4K» (kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsiya) kompetensiyalarining asosi hisoblanadi.

Kritik fikrlashning asosiy xususiyatlari:

Tahlil va baholash: Axborotning ishonchliligini tekshirish, faktlarni fikrlardan ajratish.

Savol berish: "Nima uchun?", "Qanday qilib?" kabi savollar orqali chuqurroq mohiyatni tushunish.

Ochiqlik: Yangi dalillar asosida o'z qarashlarini o'zgartira olish va tarafkashlikdan qochish.

Mustaqil fikrlash: O'z g'ayalar fikriga ko'r-ko'rona ergashmaslik, shaxsiy xulosaga ega bo'lish.

Kritik fikrlashni rivojlantirish yo'llari:

Savollar berish: Har qanday ma'lumotni tahlil qilish.

Manbalarni tekshirish: Axborotning qay darajada asosli ekanligini izlash.

Refleksiya (Mulohaza): O'z fikrlash jarayoni ustida o'ylash.

Bahslarda ishtirok etish: Turli nuqtai nazarlarni tinglash va solishtirish.

Kreativlik (ijodkorlik) — bu insonning yangi, noodatiy va samarali g'oyalar, yechimlar yoki mahsulotlarni yaratish qobiliyatidir. U an'anaviy fikrlashdan chiqib, muammolarga kreativ yondashish, tasavvur kuchi va divergent fikrlash orqali o'ziga xoslikni yuzaga chiqarishni anglatadi.

Kreativlikning asosiy xususiyatlari:

Yangi g'oyalar: Avval mavjud bo'lmagan, o'ziga xos fikrlarni o'rta tashlash.

Muammolarni yechish: Murakkab vaziyatlarda noodatiy yechim topish ko'nikmasi.

Divergent fikrlash: Bir muammoga bir nechta turlicha yondashuvlarni topa olish qobiliyati.

Intellekt va motivatsiya: Yuqori intellekt darajasi va ijod qilishga bo'lgan kuchli xohish (motivatsiya) bilan bog'liq.

Kreativlik nima uchun kerak?

Kreativlik nafaqat san'atda, balki ilm-fan, ta'lim, biznes va shaxsiy rivojlanishda innovatsiyalarni yaratish hamda jamiyat taraqqiyoti uchun muhim vositadir. U inson tafakkuri va tasavvurini kengaytiradi.

Kommunikatsiya (muloqot) — bu ikki yoki undan ortiq shaxslar (yoki tizimlar) o'rtasida axborot, fikr, g'oya va his-tuyg'ularni uzatish hamda qabul qilish jarayonidir. U insonlarning o'zaro aloqasini ta'minlaydi, tushunishga yordam beradi va ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi.

ASOSIY

maqsadi: Axborot almashish, ta'sir ko'rsatish, tushunish va munosabat o'rnatish.

Turlari: Og'zaki (nutq), yozma (xatlar, xabarlar) va noverbal (imo-ishoralar, mimikalar) shakllarda bo'ladi.

Tarkibiy qismlari: Axborot manbai (uzatuvchi), xabar, uzatish kanali va qabul qiluvchi.

Samarali kommunikatsiya: Suhbatdoshni tinglash, tushunish va fikrni aniq yetkazish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Farqi: Kommunikatsiya kengroq tushuncha bo'lib, texnik aloqa vositalarini ham o'z ichiga olishi mumkin, muloqot esa ko'proq shaxslararo hissiy va nutqiy aloqani anglatadi.

Kommunikatsiya nafaqat insonlar, balki tirik tabiat va texnik tizimlar o'rtasida ham ma'lumot almashinuvi sifatida namoyon bo'ladi.

Kollaboratsiya (jamoada ishlash) — umumiy maqsadga erishish uchun ikki yoki undan ortiq shaxs, guruh yoki tashkilotlarning o'zaro hamkorlik qilishi, fikr almashishi va resurslarni birlashtirish jarayonidir. Bu jarayon samarali muloqot, o'zaro qo'llab-quvvatlash va umumiy mas'uliyat asosiga quriladi.

Kollaboratsiyaning asosiy xususiyatlari:

Umumiy maqsad: Barcha ishtirokchilar yagona natijaga erishishga intiladi.

O'zaro ta'sir va muloqot: G'oyalar bilan bo'lishish va samarali muloqot qilish, hamkorlik muhitini yaratadi.

Rollarning taqsimlanishi: Har bir a'zo o'z qobiliyati va majburiyatlari doirasida ish tutadi. Samaradorlik: Murakkab muammolarni birgalikda, tezroq va sifatliroq yechish imkonini beradi. Kreativlik va ijodkorlik: Turli fikrlar to'qnashuvi yangi g'oyalar va innovatsion yechimlarni tug'diradi.

Kollaboratsiya nafaqat ta'limda (4K metodi: kreativlik, kreativ fikrlash, kollaboratsiya, kommunikativlik), balki biznes va boshqa sohalarda ham sog'lom muhit yaratish hamda yuqori natijalarga erishishning asosiy omili hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlildan shuni ko'rish mumkinki, zamonaviy ta'lim 4K ko'nikmalari sifatli ta'lim jarayonida muhim asosni tashkil qiladi.

Umrbod ta'lim (Lifelong Learning) jarayonida - diplom olish bilan o'qish tugamaydi. Dunyo tez o'zgarayotgani sababli, inson butun umri davomida qayta tayyorlanishi (reskilling) va malaka oshirishi (upskilling) zaruriy ehtiyojga aylanadi.

Gibrid va Masofaviy ta'lim ham XXI asrning muhim trendlariga aylanishga ulgurdi. Dunyodagi eng nufuzli universitetlar (Harvard, MIT) darslarini Coursera yoki edX kabi platformalar orqali hamma uchun ochiq qilib qo'ydi. Bu ta'limning demokratlashuviga, ya'ni chekka qishloqdagi bola ham jahon standartidagi bilimni olishiga imkon beradi.

Barqaror rivojlanishga erishishda ta'lim shunchaki yordamchi vosita emas, balki uning poydevori hisoblanadi. BMTning 17 ta maqsadi ichida 4-maqsad (Sifatli ta'lim) barcha boshqa maqsadlarni birlashtiruvchi bo'g'indir. Bu jarayonda ta'limning barqaror rivojlanishdagi asosiy rollari alohida belgilab berilgan:

Tafakkurni o'zgartirish (Ongli iste'mol)

Barqaror rivojlanish faqat texnologiyaga bog'liq emas, u odamlarning dunyoqarashiga bog'liq. Ta'lim orqali insonlar resurslarni tejash, chiqindilarni saralash va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik mas'uliyatini anglaydi. Uning natijasida, "oladigan, ishlatadigan va tashlab yuboradigan" jamiyatdan "aylanma iqtisodiyot" (circular economy) jamiyatiga o'tiladi.

Kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy o'sish

Sifatli ta'lim insonlarga zamonaviy kasblarni egallash imkonini beradi. Bilimli jamiyatda ishsizlik kamayadi, innovatsiyalar ko'payadi va umumiy farovonlik oshadi. Bunda har bir qo'shimcha o'quv yili inson daromadini o'rtacha 10% ga oshirishi isbotlangan.

Ijtimoiy tenglikni ta'minlash

Ta'lim gender tengsizligini kamaytirishning eng samarali yo'lidir. Qizlar va ayollarning ta'lim olishi sog'liqni saqlash, oila mustahkamligi va ijtimoiy barqarorlikka bevosita ta'sir qiladi.

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash

Zamonaviy ta'lim bilim oluvchilarga iqlim inqirozining sabablarini va unga moslashish yo'llarini o'rgatadi. "Yashil" ko'nikmalar (qayta tiklanuvchi energiya, ekologik qishloq xo'jaligi) bo'yicha mutaxassislar aynan ta'lim tizimida yetishib chiqadi.

Dunyoda tinchlik va adolat (Global fuqarolik)

Ta'lim inson huquqlari, bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqotni targ'ib qiladi. Bu esa dunyoda nizolarning kamayishiga va barqaror tinchlik o'rnatilishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi rollardan shuni umumlashtirish mumkinki, agar barqaror rivojlanishni bir bino deb tasavvur qilsak, ta'lim uning loyihasi va quruvchisidir. Bilimsiz barqarorlikka erishib bo'lmaydi, chunki faqat bilimli avlodgina bugungi kun ehtiyojlarini kelajak avlod hisobiga qondirmaslik kerakligini tushunadi. Sifatli ta'lim — bu shunchaki ta'lim muassasasiga borish yoki diplom olish emas, balki olingan bilim va ko'nikmalarning hayotiy ehtiyojlarga, mehnat bozoriga va shaxsiy rivojlanishga mos kelishidir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) talqiniga ko'ra, sifatli ta'lim quyidagi asosiy ustunlarga tayanadi: dolzarblik, inklyuzivlik, ko'nikmalarga yo'naltirilganlik, malakali pedagoglar va xavfsiz, zamonaviy muhit.

Ta'limdagi dolzarblik (Knowledge relevance) - o'rgatilayotgan bilimlar bugungi kun va kelajak talablariga javob berishini anglatadi. Eskirgan nazariyalar emas, balki amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan ma'lumotlar sifatli hisoblanadi.

Ta'limdagi inklyuzivlik va tenglik - sifatli ta'lim hamma uchun (jinsi, yashash joyi (shahar yoki qishloq), ijtimoiy kelib chiqishi va jismoniy imkoniyatlaridan qat'i nazar) bir xil darajada ochiq bo'lishi lozimligini anglatadi.

Ta'limdagi ko'nikmalarga yo'naltirilganlik - faqat ma'lumotni yodlash (akademik bilim) emas, balki "hayotiy ko'nikmalar" ni shakllantirishni ham qamraydi, ya'ni, tanqidiy va kreativ fikrlash; muammolarni hal qila olish; raqamli savodxonlik; muloqot va jamoada ishlash kabilarni.

Ta'limda malakali pedagoglar deganda - sifatli ta'limni zamonaviy metodikani egallagan, bilim oluvchini darsga qiziqтира oladigan va o'zi ham doimiy o'rganishda bo'lgan o'qituvchisiz tasavvur qilib bo'lmasligini anglatadi.

Ta'limda xavfsiz va zamonaviy muhit yaratilishida - bilim oluvchi o'zini jismoniy va psixologik jihatdan xavfsiz his qiladigan, zaruriy texnologiyalar (internet, laboratoriyalar, darsliklar) bilan ta'minlangan muhit sifatli ta'limning muhim qismiga aylantirilganligini anglatadi.

Sifatli ta'limning asosiy o'lchovi — bitiruvchining jamiyatda o'z o'rnini topishi, mustaqil qaror qabul qila olishi va barqaror rivojlanishga hissa qo'shishidir. Umumiy xulosa o'rnida shuni

ta'kidlash joizki, sifatli ta'lim — bu insonni o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli yashashga va raqobatbardosh bo'lishga tayyorlaydigan jarayondir.

References:

1. ZAMONAVIY TA'LIMDAGI MUAMMOLAR // B Kadirov, AX Aripova Scientific progress 2 (1), 699-704, 2021.
2. TIL KODI MULOQOT VOSITASI SIFATIDA // AX Aripova, NX Rahimova Журнал гуманитарных и естественных наук, 85-87, 2025.
3. Tilni samarali o'qitish tamoyillari // RNX Aripova Aziza Xasanovna TAMADDUN NURI // 2026
4. <https://esg-library.mgimo.ru/rubricator/tseli-ustoychivogo-razvitiya-tsur/> 2023.
5. https://unstats.un.org/sdgs/indicators/Global%20Indicator%20Framework%20after%20refinement_Rus.pdf // 2025
6. Цели устойчивого развития - принцип развития на основе социального, экономического и экологического баланса // 2025
7. Йоханнесбургская декларация по устойчивому развитию // <https://esg-library.mgimo.ru/publications/yokhannesburgskaya-deklaratsiya-po-ustoychivomu-razvitiyu/> 2025
8. Зеленая экономика. Глобальное развитие // <https://esg-library.mgimo.ru/publications/zelyenaya-ekonomika-globalnoe-razvitie/> 2022.